

OILAVIY MUNOSABATLARDAGI GENDER TALQINIDA MUHOJAATNING O'RNI

M.B.Samatova

ADChTI, 2 kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854523>

Murojaat shakllari oilaviy munosabatlar tizimida o'ziga xos o'rin tutadi. O'zaro muloqot davomida murojaatning qanday shakli tanlanishiga qarab ko'plab oilaviy sirlarga guvoh bo'lish mumkin. Murojaat shakli o'ziga xos psixologik ko'rsatkichdir. Murojaat shakllarining tanlanishi nafaqat shaxs, balki millatning ham ruhiy va ijtimoiy qiyofasini oydinlashtiradi, mentalital jihatlarini namoyon qiladi.

O'zbek oilalarida farzand juda qadrlanadi. Murojaat shakllarida farzandning oiladagi mavqei namoyon bo'ladi:

Yolg'izim, yagonam – yakka farzandlarga qaratilgan murojaat.

Suyanchig'im, aqligim – to'ng'ich farzandlarga qaratilgan murojaat.

Erkatoyim, munchog'im – kenja farzandlarga qaratilgan murojaat.

Murojaatning ushbu shakllarini qo'llash orqali farzandlarga ularning ota-ona oldidagi qimmati bildiriladi, mavqei ko'rsatilib ruhiy quvvatlantiriladi.

Shuningdek, murojatning tinglovchi emas, aytuvchiga ham ruhiy ta'sir o'tkazuvchi shakllari ham mavjud: orqamda qolguvchim, chirog'im, belimning quvvati kabi.

Farzandlarning ota-onaga murojaatlari ham o'ziga xos psixologik tusga ega:

Ota – rasmiy va ulug'vor murojaat.

Dada – keng tarqalgan murojaat shakli bo'lib, hurmat bilan murojaat qilinganda ishlatiladi va dadajon, dadaginam kabi erkanish shakllariga ham ega.

Ona so'zi ham rasmiy va badiiy tusga ega (shevaga oid xususiyatlarga to'xtalmadik). Farz'ona vodiysida keng tarqalgan aya, buvi, aba kabi shakllari kundalik murojaat shakli bo'lib ruhiy yaqinlikni alohida bo'rttirib ko'rsatuvchi ayajonim, buvijon kabi shakllari ham faol qo'llaniladi.

Farzandlarning o'zaro murojaat shakllari yosh va gender xususiyatlarni hisobga oladi:

Yoshi katta o'g'il farzandga kichiklari aka deb murojaat qiladilar.

Yoshi kichik o'g'il farzandga kattalari uka deb murojaat qiladilar.

Yoshi katta qiz farzandga opa deb murojaat qilinadi, biroq yoshi kichik qiz farzandga singil deb murojaat qilish an'anasi yo'q.

Oilaviy tizim qancha keng bo'lsa murojaat shakllarining vazifasi ham shuncha ko'p bo'ladi. Nikoh bilan bog'liq tizimlar, ya'ni er yoki xotinning otasi va onasiga, qarindoshlariga murojaat shakllari borasida qiziq an'analar shakllangan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, -jon qo'shimchasini qo'shish munosabatda ruhiy yaqinlikni bo'rttirib ko'rsatadi. Biroq doim ham emas.

Erning onasi – qaynonaga oyijon, erning otasi – qaynotaga dadajon deb murojaat qilish an'anasi bor. Ushbu murojaat shakllari egalik qo'shimchasi olib o'zgarmasligi bilan, xuddi shunday shaklga ega tuqqan ota-onaga murojaatdan farq qiladi. Qiyoslang: Oyijon aytdi (qaynona haqida) // Oyijonim aytdi (o'z onasi haqida). Egalik qo'shimchasini ishlatmaslik, oyijon atamasini atoqli otlarga yaqinlashtiradi, qaynona-kelin, qaynota-kelin o'rtasida mavjud muayyan chegaraga ishora qiladi.

Murojaat shakllari tizimida er-xotin muloqotida qo'llanuvchi murojaat shakllari alohida o'rin tutadi. Milliy urf-odatlardan kelib chiquvchi murojaat shakllarining butun bir tizimi shakllanganki, ularni o'rganish alohida yirik tadqiqotlarni talab qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Ona tili millatning ruhi ekanligini ko'plab mutafakkirlar ta'kidlaganlar. Millat ruhi va mentalitetini aks ettiruvchi murojaat shakllari – ularning gender, psixologik o'ziga xosliklarini o'rganish tildan amaliy foydalanish ancha qiziqarli ma'lumotlar beradi va muloqotni rivojlantiradi.

References:

1. Gender asoslari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: 2003. – 480 b.
2. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotga kirish. – Toshkent: 2007. – 137 b.
3. Kirilina A.V. «Mujestvennost'» i «jenstvennost'» s tochki zreniya lingvista// Jenshina v rossiyskom obshestve. 1998. №2. – S.21-27.
4. 4 .Mallaev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi,1965. – 743 b.
5. Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so'z o'zlashtirish// O'zbek tili va adabiyoti. 2015. №3. – B.3-12.
6. Mifi narodov mira. V 2t. – Moskva: 1980. – 560 s.
7. Rabg'uziy N.B. Qissasi Rabg'uziy.1 tom. – Toshkent: Yozuvchi,1990. – 240 b.
8. Zhensko emnenie.ru